JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 6 - iyul 150-3-52-Q/23 Paxtakor tuman hokimligi

## Yo‘l belgilari hamda sun’iy notekislik o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari” talablari hamda 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlan to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish maqsadida, tuman ichki ishlar bo‘limining 2023-yil 15-maydagi 41/61-sonli, 2023-yil 31-maydagi 41/126-sonli hamda 41/127-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan

## QAROR QILAMAN:

1. Tuman ichki ishlar bo‘limining 2023-yil 15-apreldagi 41/61-sonli, 2023-yil 31-maydagi 41/126-sonli hamda 41/127-sonli xatlari inobatga olinsin.

2. Quyidagi:

- “Toshkent” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Sharof Rashidov ko‘chasining tuman hokimligi binosining ro‘parasiga 1.31 “Sun’iy notekislik” qurilmasi va “Sun’iy yo‘l notekisligi” yo‘l belgilarini o‘rnatishga;

- “Toshkent” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Sharof Rashidov ko‘chasining So‘g‘diyona ko‘chasi bilan kesishmasiga 2.1 “Asosiy yo‘l” yo‘l belgilarini o‘rnatishga;

- “Toshkent” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Sharof Rashidov ko‘chasining 4r35 “Jizzax – Gagarin” avtomobil yo‘lidan tuman hokimligi yo‘nalishida “Mo‘jiza” madaniyat va aholi dam olish markazi o‘ng darvozasi ro‘parasiga 1.31 “Sun’iy notekislik” qurilmasi va “Sun’iy yo‘l notekisligi” yo‘l belgisi, 5.15 “To‘xtab turish joyi” yo‘l belgisi, 1.20 “Piyodalar o‘tish joyi” yo‘l belgisi, 1.21 “Bolalar” yo‘l belgilari va 1.14.1 “Zebra” yotiq chiziqlari yo‘l belgilarini o‘rnatishga;

- “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini Sharof Rashidov ko‘chasining Davlat xavfsizlik xizmati tuman bo‘limi ro‘parasiga 3.27 “To‘xtash ta’qiqlanadi” yo‘l belgisini o‘rnatishga;

- “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Yunus Rajabiy va Abdulla Qodiriy ko‘chalari kesishmasi “Baxt” to‘y va tantanalar maskani yoniga 3.27 “To‘xtash ta’qiqlanadi” yo‘l belgisini o‘rnatishga;

- “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Sharof Rashidov ko‘chasining tuman hokimligi yo‘nalishida “Davlat xizmatlari markazi” ro‘parasiga 1.31 “Sun’iy notekislik” qurilmasi va “Sun’iy yo‘l notekisligi” yo‘l belgisi, avtomashinalar to‘xtashi uchun 5.15 “To‘xtab turish joyi” yo‘l belgisi, piyodalarning xavfsiz harakatlanishi uchun 1.20 “Piyodalar o‘tish joyi” yo‘l belgisi, 1.21 “Bolalar” yo‘l belgilarini o‘rnatishga;

- “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi 10-sonli “Shodlik” maktabgacha ta’lim muassasasi ro‘parasiga 1.31 “Sun’iy notekislik” qurilmasi va “Sun’iy yo‘l notekisligi” yo‘l belgisi, 5.16.1 va 5.16.2 “Piyodalar o‘tish joyi” yo‘l belgisi, 1.21 “Bolalar” yo‘l belgisi va 1.14.1 “Zebra” yotiq chiziqlari yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (R.Zavqiev)ga yangi o‘rnatilayotgan yo‘l belgilarining amaldagi davlat namunasi (davlat standarti) asosida bo‘lishini qat’iy nazoratga olish topshirilsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Y.Akaboev) va IIB YHXB (A.Ashurov)larga tuman hududidagi ba’zi ko‘chalar bo‘ylab avtomobillar harakatining o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O.Amanov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi v.b.** **A.Ashurov**